INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION
ISSN 2181-371X
https://sr-journals.org/index.php/ITSE

Ta’lim xizmatlari bozorida inson kapitalini shakllantirish mexanizmini takomillashtirish

Navoiy davlat universiteti, Iqtisodiyot faku’lteti o‘qituvchisi
Rahmonov Ilg‘or G‘aybullayevich

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim xizmatlari bozorida inson kapitalini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida inson kapitalining ahamiyati, uni rivojlantirish omillari hamda ta‘lim tizimi orqali shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, ta‘lim xizmatlari bozorining rivojlanish tendensiyalari, innovatsion yondashuvlar va xalqaro tajriba asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.
Kalit so’zlar: inson kapitali, ta‘lim xizmatlari bozori, ta‘lim tizimi, innovatsiya, kompetensiya, iqtisodiy rivojlanish, bilim iqtisodiyoti, kadrlar tayyorlash, raqamli ta‘lim.
Аннотация: В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты формирования человеческого капитала на рынке образовательных услуг. Подчеркивается важность человеческого капитала в современной экономике, факторы его развития и вопросы совершенствования механизмов его формирования через систему образования. Также разработаны предложения и рекомендации, основанные на тенденциях развития рынка образовательных услуг, инновационных подходах и международном опыте.
Ключевые слова: человеческий капитал, рынок образовательных услуг, система образования, инновации, компетентность, экономическое развитие, экономика знаний, подготовка кадров, цифровое образование.
Abstract: This article analyzes the theoretical and practical aspects of human capital formation in the educational services market. The importance of human capital in the modern economy, factors of its development and issues of improving the mechanisms of its formation through the education system are highlighted. Also, proposals and recommendations are developed based on the development trends of the educational services market, innovative approaches and international experience.
Keywords: human capital, educational services market, education system, innovation, competence, economic development, knowledge economy, personnel training, digital education.


Inson kapitali – bu bilim, ko‘nikma, malaka va sog‘liq kabi omillar yig‘indisi bo‘lib, u jamiyatning eng muhim resursi hisoblanadi. Shu sababli ta’lim xizmatlari bozorida inson kapitalini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Ta‘lim xizmatlari bozori esa inson kapitalini shakllantiruvchi asosiy institut sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu bozorda yuz berayotgan o‘zgarishlar, raqobatning kuchayishi va raqamli texnologiyalarning kirib kelishi ta‘lim tizimini takomillashtirishni talab etmoqda.

Inson kapitali tushunchasi va uning iqtisodiy mazmuni. Ta‘lim xizmatlari bozorining mohiyati va xususiyatlari

Inson kapitalining asosiy tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi: bilim va malaka , sog‘liq; tajriba; innovatsion fikrlash qobiliyati. Inson kapitali iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u ishlab chiqarish unumdorligini oshiradi va innovatsiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ta’lim xizmatlari bozori — bu ta‘lim muassasalari va iste’molchilar o‘rtasidagi xizmatlar almashinuvi tizimidir. Ushbu bozorning o‘ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat:[1]



Bozor mexanizmlari asosida faoliyat yurituvchi ta‘lim tizimi sifatni oshirish va innovatsiyalarni joriy etishga yordam beradi.

Inson kapitalini shakllantirishda ta‘lim tizimining roli: zamonaviy ta‘lim xizmatlari bozorining muammolari:

Ta‘lim tizimi inson kapitalini shakllantirishda asosiy vosita hisoblanadi. Maktabgacha ta‘limdan boshlab oliy ta’limgacha bo‘lgan barcha bosqichlar shaxsning rivojlanishiga xizmat qiladi. Ta‘limning asosiy vazifalari: bilim berish, kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish, shaxsni ijtimoiylashuvga tayyorlash zarurdir .

Hozirgi kunda ta’lim xizmatlari bozorida quyidagi muammolar mavjud:

* ta‘lim va mehnat bozori o‘rtasidagi nomutanosiblik;
* amaliy ko‘nikmalar yetishmasligi;
* ta’lim sifati darajasining notekisligi;
* raqamli infratuzilmaning yetarli emasligi.

Bundan tashqari raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini rivojlantirishga keladigan bo‘lsak Raqamli texnologiyalarni ta‘lim sohasiga kiritilishini salmog‘ni oshirilib borilishi ,ta‘lim tizimiga islohotlarning keng joriy etilishi , ta‘limning mohiyati va sifatini tubdan yangilashni taqozo etmoqda. Ta‘lim sohasiga ,onlayn ta‘lim, masofaviy o‘qitish va sun‘iy intellekt asosidagi platformalar kiritilish inson kapitalini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Q‘shimcha qilib aytish mumkinki ta‘lim sifatini oshirish uchun quyidagi chora-tabirlarni amalga oshirish muhim hisoblanadi:

* o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish;
* pedagog kadrlar malakasini oshirish;
* xalqaro standartlarni joriy etish.
* respublika OTM va xorijiy OTM o‘rtasida professor o‘qituvchilar va talabalar mobilligini (almashinuvini) ko‘paytirish;
* OTM va korxonalar(tashkilotlar) o‘rtasida dual ta‘lim,kasbiy ta‘lim, ustoz-shogird an‘analarini kengaytirish ;

Ta‘lim va inson kapitali o‘rtasidagi bog‘liqlik: So‘nggi yillarda dunyo miqyosida inson kapitaliga kiritilgan investitsiyalar sezilarli darajada oshgan. Xalqaro tashkilotlar ma‘lumotlariga ko‘ra:[2]

Ko‘rsatkich	2015	2020	2024	2025
Ta’limga ajratilgan xarajatlar (YAIMga nisbatan, %)	**4.5%**	**4.9%**	**5.2%**	**7.8%**
Oliy ta’lim qamrovi (%	**32%**	**38%**	**45%**	**47.3%**
Raqamli ta'limdan foydalanuvchilar (%)	**15%**	**35%**	**60%**	**62.5%**

Tahlil qiladigan bo'lsak: Ta'limga investitsiya oshgani sari inson kapitali sifati ham ortmoqda. Bundan tashqari raqamli ta’limning keskin o‘sishi zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston misolida ta‘lim rivojlanish ko‘rsatkichlari.[3]

* Oliy ta’lim qamrovi keskin oshgan.
* Xususiy sektor kirib kelishi raqobatni kuchaytirgan.
*Bu esa inson kapitali sifatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda

Ko‘rsatkich	2017	2021	2025
Oliy ta’lim qamrovi (%)	9%	28%	42%
Nodavlat OTMlar soni	5 ta	25 ta	60+
Onlayn ta'lim platformalari	past	o‘rta	yuqori

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, inson kapitali mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillaridan biridir. Uni shakllantirishda ta‘lim xizmatlari bozori muhim rol o‘ynaydi. Shu bois ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va mehnat bozori bilan integratsiyani kuchaytirish zarur. Ta‘lim xizmatlari bozorida inson kapitalini shakllantirish mexanizmini takomillashtirish kompleks yondashuvni talab etadi.

O‘zbekistonning jahon iqtisodiy hamjamiyatiga integratsiyalashuvi tobora kuchayib borayotgan davrda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining asosiy kafolatidir .

Foydalangan adabiyotlar:

1. Eshboyev A.Kh. (2008). Influence of the education system on the development of the national economy during the transition to market relations: abstract of the dissertation of Doctor of Economics [1] Schultz T. Investment in Human Capital.

2. Usmonova R.M. (2011) Improvement of economic relations in the market of educational services (on the example of higher education): abstract of the dissertation of Doctor of Economics.[2] Todaro M. Economic Development.

3. BMT hisobotida O’zbekistonda talim va inson kapitali o’rtasidagi korsatgichglar taxlili [3]

4. www.webofscience.com-Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi